

UDK: 338:004

## RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING STATISTIKA TIZIMIDA TUTGAN O‘RNI

Akbarova Muattar Raxmatullaevna,  
*Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlari instituti tayanch doktoranti (PhD)*  
E-mail: [mm.akbarova@mail.ru](mailto:mm.akbarova@mail.ru)

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqola statistika faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish mavzusiga bag‘ ishlanadi. Maqolada statistik ma‘lumotlarning o‘ziga xos jihatlari, miqdoriy statistik ko‘rsatkichlar, mamlakatimizda milliy statistika sohasini va raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendentsiyalari, hamda statistika tizimida “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasiga asosan amalga oshirilgan va amaliyotga joriy etilgan loyixalar, raqamli iqtisodiyotning asosiy texnologiyalari hisoblangan Big Data, sun‘iy intellekt, neyrotexnologiyalar, kvant texnologiyalari, bulutli va mobil texnologiyalar, virtual va qo‘shimcha reallik texnologiyalari, kradsorsing, blokcheyn texnologiyalari kabi masalalari yoritilib berilgan. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining tarmoqlari va sohalarida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalarini hal qilishga bag‘ishlangan mahalliy olimlarning ilmiy ishlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotni rivojlanish holatini aks ettiradigan ko‘rsatkichlarning O‘zbekistondagi va rivojlangan boshqa davlatlardagi holati taqqoslanib, tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** statistik ma‘lumotlar, rasmiy statistika, statistika tizimi, milliy statistika tizimi, axborot, raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, elektron tijorat, statistika agentligi, axborot tizimi, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv xizmatlar, ochiq ma‘lumotlar.

**АННОТАЦИЯ.** Данная статья посвящена теме использования цифровых технологий в статистической деятельности. В статье рассмотрены специфические аспекты статистических данных, количественные статистические показатели, области национальной статистики и тенденции развития цифровой экономики в нашей стране, а также реализованные и реализуемые на практике проекты в статистической

системе на базе «Цифровой Узбекистан-2030», выделены основные технологии цифровой экономики Big Data, искусственные вопросы, такие как интеллект, нейротехнологии, квантовые технологии, облачные и мобильные технологии, технологии виртуальной и дополненной реальности, краудсорсинг, технологии блокчейн. В статье рассматриваются научные работы отечественных ученых, посвященные решению вопросов эффективного использования ИКТ в отраслях и секторах народного хозяйства Республики Узбекистан. Также было проведено сравнение и анализ состояния показателей, отражающих состояние развития цифровой экономики в Узбекистане и других развитых странах.

**Ключевые слова:** статистические данные, официальная статистика, статистическая система, национальная статистическая система, статистическое агентство, информация, цифровая экономика, цифровые технологии, электронная коммерция, статистическое агентство, информационная система, информационно-коммуникационные технологии, интерактивные сервисы, открытые данные.

**ABSTRACT.** This article is devoted to the topic of using digital technologies in statistical activities. The article discusses specific aspects of statistical data, quantitative statistical indicators, areas of national statistics and trends in the development of the digital economy in our country, as well as implemented and ongoing projects in the statistical system based on "Digital Uzbekistan-2030", highlights the main technologies of the digital economy Big Data, artificial issues such as intelligence, neurotechnologies, quantum technologies, cloud and mobile technologies, virtual and augmented reality technologies, crowdsourcing, blockchain technologies. The article discusses the scientific work of domestic scientists devoted to solving issues of the effective use of ICT in industries and sectors of the national economy of the Republic of Uzbekistan. A comparison and analysis of the state of indicators reflecting the state of development of the digital economy in Uzbekistan and other developed countries was also carried out.

**Key words:** statistical data, official statistics, statistical system, national statistical system, statistical agency, information, digital economy, digital technologies, e-commerce, statistical agency, information system, information and communication technologies, interactive services, open data.

## KIRISH

Statistik ma'lumotlar XVII asrning o'rtalarida jamiyat va davlatning barcha sohalarini samarali rivojlantirish uchun zarur bo'lgan miqdoriy ma'lumotlar bo'yicha turli xil hisob-kitoblarni amalga oshirish zarurati bilan bog'liq holda paydo bo'ldi [1].

Zamonaviy ilmiy muhitda statistika ma'lumotlari bilan ishlashni o'ziga xos jihatlarini tasvirlab beradigan fan sifatida talqin etiladi, uning asosiy vazifasi ma'lumotlar bo'yicha funksiyalarni bajarishning turli miqdoriy usullarini o'rganish, jamiyatda sodir bo'layotgan turli ommaviy hodisalar bilan bog'liq qisqa muddatli va uzoq muddatli prognozlarni ishlab chiqishdir [2].

Statistika miqdoriy ma'lumotlar asosida ommaviy hodisa va jarayonlarning xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining tendentsiyalari va qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Statistika axborotlashgan jamiyatning eng muhim axborot resursi sanaladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, har qanday hodisa miqdoriy statistik ko'rsatkichlar bilan tasdiqlansa, yanada aniq va ahamiyatli bo'ladi.

Jahon iqtisodiyotida shiddat bilan rivojlanayotgan raqobat muhiti sharoitida barcha yo'nalishdagi faoliyatni bugungi va ertangi kun talabi asosida hamda jahon standartlariga mos ravishda rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada mamlakatimizda ham qator ishlar amalga oshirilyapti. Bu jarayon o'z navbatida amaldagi qonunchilikni ham takomillashtirishni, eskirgan normalarni yangilariga almashtirishni taqozo etganligi sababli amaldagi «Davlat statistikasi to'g'risida»gi qonuni o'rniga xalqaro tajribani o'rganish natijasida, hozirgi sharoitga va xalqaro tavsiyalarga to'liq mos keladigan, xorijiy tajribalar va xalqaro tashkilotlar tavsiyalari asosida «Rasmiy statistika to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi ishlab chiqildi va Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilindi [3].

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida statistika ma'lumotlari - statistika kuzatuvlari natijasida va (yoki) ma'muriy ma'lumotlar asosida tayyorlangan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik xususiyatga hamda boshqa xususiyatga ega axborot ekanligi aytib o'tilgan. Rasmiy statistika esa "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonunining qoidalariga muvofiq davlat statistika organlari va rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan tayyorlanadigan hamda tarqatiladigan statistika ma'lumotlaridan iboratdir [4].

Statistik ma'lumotlar tufayli boshqaruv organlari ijtimoiy-iqtisodiy holatning to'liq tavsifini oladi. Aynan shu statistik ma'lumotlar aholi turmush darajasi va yashash sifatini baholash, yalpi ichki mahsulot va yalpi hududiy mahsulot hajmini aniqlash, iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlarini rivojlantirishning asosiy tendentsiyalarini aniqlash, inflyatsiya darajasini statistik baholash va tahlil qilish, moliya va tovar bozorlari, mahsulot va

xizmatlarning raqobatbardoshligi, korporatsiyalar va firmalarning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyati natijalarini haqqoniy baholash, ishlab chiqarish ichidagi zahiralarni aniqlash imkonini beradi. Aynan shu sababli xam statistik ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Rasmiy statistikaning asosiy printsiplari hisoblangan statistik maxfiylik, aniqlik va ishonchlilik [4] ham statistik ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash dolzarb masalalardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi va transmilliy kompaniyalar hamda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanishi sharoitlarida raqamli iqtisodiyotni maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bo'yicha quyidagilarni alohida ta'kidlagan: "Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy kontseptsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur. Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o'stirish, korruptsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar o'tkazgan tahlillar ham buni tasdiqlamoqda." [5].

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishini bejarishda mavzu bo'yicha adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi, shuningdek qator onlayn ma'lumotlar bazalaridagi ilmiy manbalarda tarixiy faktlar ham hisobga olindi. Jamlangan va o'rganilgan ma'lumotlar umumlashtirildi va taqqoslandi. Tadqiqot ishida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, monografik tahlil va guruhlash usullari qo'llanildi.

Iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning yangi bosqichi sifatida namoyon bo'layotgan raqamli inqilob insoniyat hayotini shiddat bilan o'zgartirib, keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, xalqaro maydonda raqobat yanada keskinlashuviga olib keldi. Endilikda katta hajmli ma'lumotlar bilan ishlash texnologiyalari (Big Data), sun'iy intellekt, neyrotexnologiyalar, kvant texnologiyalari, bulutli va mobil texnologiyalar, virtual va qo'shimcha reallik texnologiyalari, kradsorsing, blokcheyn texnologiyalari singari raqamli texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli iqtisodiyot hozir mavjud sohalarning yarmidan ko'prog' ida beqiyos o'zgarishlarga olib kelishi ta'kidlanmoqda. Jahon banki ekspertlarining fikricha, internetdan foydalanuvchilar sonining atigi 10% ga o'sishi yillik YaIM o'sishini 0,4 dan 1,4% gacha oshirishi mumkin. O'zbekistonda 2022-yil yakuniga ko'ra, 23 mln.ga yaqin kishi internetdan foydalanadi va aholining 96 % mobil aloqa bilan qamrab olingan [6].

### MAVZU OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijiy va mahalliy olimlarning ko'pgina ilmiy ishlari milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish metodologiyasini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan.

Rus olimi ilmiy ishlarida davlat boshqaruvi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini muhokama qilgan. Y.G. Gulakov Xoh u mamlakat aholisiga davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'ladimi, xoh davlatda huquq-tartibotni ta'minlash bo'ladimi, hozirgi davrda AKT boshqaruvning muhim qismlaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. Davlat boshqaruvi va AKT texnologiyalari bugun mamlakatning samarali rivojlanishi uchun yonma-yon ketmoqda. Yu.G.Gulakovning qayd etishicha, AKTdan foydalanish natijasida davlat tashkilotlari faoliyatida shaffoflik bo'lib, odamlarga juda zarur bo'lgan davlat xizmatlarini o'z vaqtida va to'g'ri ko'rsatmoqda. Deyarli barcha hollarda axborot tizimlari va texnologiyalari davlat boshqaruvi sohasida shaffoflik tamoyilini ta'minlashga, shuningdek, yanada samarali muloqot va umuman ishni optimallashtirishga qaratilgan [7].

Yana bir rossiyalik olim S.A.Haybullina axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida davlat xizmatlarini ko'rsatishni huquqiy tartibga solish bo'yisha tadqiqotlar olib borgan. Uning fikricha, davlat boshqaruviga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi davlat organlarining davlat xizmatlarini ko'rsatish borasidagi faoliyatining yetarli darajada yuqori darajasini ta'minlash imkonini beradi. Natijada, elektron shaklda davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida yuzaga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solishni o'rganish ijtimoiy rivojlanishning ahamiyati hisoblanadi [8].

Mahalliy olimlarimiz ham raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining tarmoqlari va sohalarida AKTdan samarali foydalanish masalalariga bag' ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

B.A.Begalov ilmiy ishlarida iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlar amaliyotini taxlil qilgan holda, iqtisodiyot tarmoqlarida, xususan, statistika sohasida ilg'or AKTdan samarali foydalanish natijasida ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyati paydo bo'layotganligini, shuningdek, zamonaviy AKTlar nafaqat muayyan tarmoqni rivojlantirishning bugungi holatini baholash, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli prognozlarini va dasturlarini ishlab chiqish, barqaror rivojlanishning maqsadli ko'rsatkichlarini belgilash, aholi farovonligi va mamlakatimiz raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini alohida ta'kidlab o'tganlar [9].

I.E. Jukovskayaning fikriga ko'ra, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi milliy iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beradi [10].

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish davlatning jahon miqyosida raqobatbardoshligini oshirishning hal qiluvchi shartlaridan biri bo'lib, u tarmoqlar va milliy iqtisodiyot faoliyatini baholashning yangi uslubiy yechimlarini ishlab chiqishga xizmat qilmoqda. Ilg'or raqamli texnologiyalar, axborot oqimlarini to'plash va qayta ishlashning innovatsion mexanizmlaridan foydalanish natijasida ijtimoiy-iqtisodiy kompleksni rivojlantirish strategiyalarining butun majmuasi amalga oshirilishini statistik baholash yanada ochiq va oshkora bo'lishi, bu esa o'z navbatida xalq xo'jaligi tarmoqlari va sohalarini samarali rivojlantirish uchun malakali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi [11].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha akademik Gulyamov S.S., professor Shermuxammedov A.T. va Xodeyev B.Y., Shodiyev T.SH., Dadabayeva R.A., Kenjabayev A.T. [12-16] kabi olimlar ham tadqiqot ishlari olib bormoqdalar.

### TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida AKT sektori rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, har yili interaktiv xizmatlar miqdori ortib bormoqda, dasturiy ta'minotlar ishlab chiqilmoqda, axborotlashtirish aloqa xizmatlari takomillashtirilmoqda. Shu tariqa raqamli iqtisodiyot shakllantirish uchun infratuzilma yaratilmoqda.


1-jadval

Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning YalMdagi ulushi (mlrd.so'm)

Ko'rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektori	3 876,3	4 967,7	6 377,8	7 934,0	8 701,4	11 121,8	17 455,5
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektori	3 581,7	4 575,3	5 849,0	7 059,0	7 508,4	9 399,3	12 012,8
AKT ishlab chiqarish	141,7	127,2	238,3	307,3	283,7	551,2	642,0
AKT savdosi	140,8	228,0	281,6	240,4	299,0	261,8	380,3
AKT xizmatlari	3 299,2	4 220,1	5 329,1	6 511,3	6 925,7	8 586,3	10 990,5
Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari	294,6	392,4	518,7	767,7	928,3	1 120,6	1 498,2
Elektron tijorat			10,1	107,3	264,7	602,0	3 944,5

Manba: stat.uz

1-jadvalda Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi berilgan bo‘lib, e‘tibor beradigan bo‘lsak, bu sektorning YaIM dagi ulushi 2015-yilda 1,9%ga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib bu ko‘rsatkich 2,6%ni tashkil qilganligini ko‘rishimiz mumkin. 6 yil davomida bu ko‘rsatkichning 0,7%ga oshishiga mamlakatimizda tashkil etilgan “Axborot va aloqa” sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlari sonining ko‘payishini sabab qilib ko‘rsatish mumkin.



Manba:stat.uz

### 1-rasm. Iqtisodiy faoliyat bo‘yicha “Axborot va aloqa” sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

1-rasmga e‘tibor beradigan bo‘lsak, “Axborot va aloqa” sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlari soni 2016-yilda 6 370 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yil yakunida bu ko‘rsatkich 12 204 taga yetgan. Bu esa 8 yil davomida bu ko‘rsatkich 5 834 taga (91%ga, 1,91 barobarga) ko‘payganini anglatadi.

Bugungi kunga kelib, O‘zbekiston respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi tomonidan “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan loyixalar yaratilib amaliyotga keng joriy etilgan. Bunday loyixalardan biri tanlanma statistik kuzatuvlarni o‘tkazish jarayonlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘lib, bu loyixani amalga oshirish uchun statistika agentligi tomonidan o‘tkaziladigan kuzatuvlarni planshet orqali amalga oshirish uchun dasturiy ta‘minotini ishlab chiqildi. Axborot tizimi 14 ta viloyat statistika boshqarmalarida sinov tarzida joriy etildi. Tizim bugungi kunda respublika miqyosida amaliyotga joriy etilgan bo‘lib, unda aniqlangan

kamchiliklarni bartaraf etish hamda doimiy texnik qo'llab-quvvatlash ishlarini ta'minlab borilmoqda.

Statistika agentligi tomonidan Aholini ro'yxatga olish jarayonlarini avtomatlashtirish jarayonni operativ, ishonchli va sifatli holda amalga oshirish imkoniyatini beradi. Shularni hisobga olgan holda, Aholini ro'yxatga olish jarayonlari va natijalari bo'yicha jamoatchilikni xabardor qilib borish maqsadida maxsus rasmiy veb-saytni ishlab chiqish, aholini ro'yxatga olishning birlamchi ma'lumotlarini kiritish va qayta ishlash bo'yicha axborot tizimini ishlab chiqish "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasida statistika agentligi zimmasiga yuklatilgan.

Statistika tizimida amalga oshirilgan loyixalardan yana biri bu korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri ma'lumotlarini interaktiv shaklda foydalanuvchilarga taqdim etish bo'yicha axborot tizimi bo'lib, mazkur axborot tizimi statistika agentligining yangilangan rasmiy veb-saytiga integratsiya qilingan. Shuningdek interaktiv xizmatdan foydalanish uchun amaldagi axborot tizimlari bilan integratsiya yo'lga qo'yilgan va korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri ma'lumotlarini interaktiv rejimda olish xizmatini sinovdan o'tkazildi va ishga tushirildi.

"Raqamli iqtisodiyot-2030" strategiyasining yo'l xaritasida belgilangan vazifalardan yana biri bu statistika agentligining axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo'lib, unga asosan o'rnatilgan tartibda tanlovlarni o'tkazish orqali, barcha statistika organlarini 18 ta spikerfon qurilmalari, videokonferents aloqa kameralari hamda 18 ta katta o'lchamdagi televizorlar bilan ta'minlandi. Shuningdek statistika organlari o'rtasida yuqori sifatli qulay aloqani joriy etish maqsadida 16 ta IP-telefoniya mini-ATS qurilmalari, 270 ta IP-telefon apparatlari bilan ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda ochiq ma'lumotlar bilan ishlashning yangi mexanizmlarini joriy etish maqsadida elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha maxsus hisob raqami mablag' lari hisobidan O'zbekiston Respublikasida ochiq ma'lumotlar portalining yangi talqinini ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi.

2022-yil yanvar holatiga O'zbekiston Open Data Inventory (ODIN) ochiq ma'lumotlar reytingida 67 ballni to'plagan holda, ushbu reytingda 37 o'ringa ko'tarildi va Markaziy Osiyo davlatlari orasida esa 1-o'rinni saqlab qoldi. 2-jadvalda 2015-2022-yillarda O'zbekistonning Open Data Inventory (ODIN) ochiq ma'lumotlar reytingida to'plagan ballari va egallagan o'rni haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu jadvalda aks ettirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston rasmiy statistikasining qamrovi va ochiqligi yil sayin o'sib bormoqda.



Xususan, Open Data Inventory (ODIN) - rasmiy statistika kamchiliklarini aniqlash, ochiq ma'lumotlar siyosatini ilgari surish, milliy statistika organlari bilan ma'lumotlardan foydalanuvchilar o'rtasida muloqotni yaxshilash va rag'batlantirishga qaratilgan qamrov va ochiqlikni baholaydi.

Open Data Watch – ochiq ma'lumotlar va rasmiy statistika o'rtasida faoliyat olib boruvchi xalqaro notijorat tashkilot. Ularning faoliyati rasmiy statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va boshqarishda o'zgarishlarni amalga tatbiq qilishdan iborat. Open Data Watch tashkiloti butun dunyo bo'yicha mamlakatlar rasmiy statistikasining qamrovi va ochiqligini yillik baholashni o'tkazish maqsadida Ochiq ma'lumotlar reestri (ODIN)ni yaratdi. Ma'lumotlarning sifati va ochiqligi monitoringini amalga oshirish orqali ular hukumatlarga, xalqaro tashkilotlarga va fuqarolarga Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ni baholash va erishish muammolarini hal etishga yordam berishlari mumkin.

2-jadval

**2015-2022-yillarda yillarda O'zbekistonning Open Data Inventory (ODIN) ochiq ma'lumotlar reytingida to'plagan ballari va egallagan o'rni**

Yillar	Ishtirok etgan mamlakatlar soni	To'plangan ball	Egallagan o'rni
2015	125	3	125
2016	173	13	168
2017	173	18	167
2018	178	19	168
2020	197	63	44
2022	192	66	40


Manba: [odin.opendatawatch.com](http://odin.opendatawatch.com)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Open Data Watch tashkiloti bilan 2019-yildan boshlab hamkorlik qilib kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlarni 2022-yilda Open Data Inventory (ODIN) ochiq ma'lumotlar reytingida to'plagan ballari va egallagan o'rni tahlil shuni ko'rsatadiki, Germaniya 78 ball bilan 13-o'rinni, Kanada 75 ball bilan 17 o'rinni, AQSh 71 ball bilan 24-o'rinni, Yaponiya esa 69 ball bilan 28 o'rinni egallab turibdi.

“Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasiga asosan, statistika tizimida bozorlar va savdo shahobchalarida asosiy tovarlar bo'yicha narxlarni monitoring qilish bo'yicha «Bozor narxi» axborot tizimi va davlat statistika hisobotlarini elektron tarzda topshirishning avtomatlashtirilgan axborot tizimi yaratildi va amaliyotga joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi” Farmoni, “Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-

tadbirlar to‘g‘ risida”gi qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta‘minlash maqsadida, Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan Statistika integrallashgan axborot tizimi (SIAT) yaratildi hamda uning negizida [siat.stat.uz](https://siat.stat.uz) O‘zbekiston Respublikasi statistika portali ishga tushirildi (2-rasm)



2-rasm. “Statistika” integrallashgan portalining ko‘rinishi

SIAT axborot tizimi tegishli vazirlik va idoralar uchun zarur statistik ma‘lumotlarni integratsiya yo‘li bilan elektron axborot almashinishni yo‘lga qo‘yish hamda quyidagi bir qator vazifalarni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqildi:

- ma‘lumotlar bazasini boshqarishning zamonaviy tizimlarini joriy etish;
- raqamli statistik ma‘lumotlar manbalarini yagona ma‘lumotlar omboriga to‘plash;
- integratsiya platformasi (REST-API) asosida axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish;
- ma‘lumotlarni vizual tasvirlash (jadval, grafik, diagramma, kartogramma) modulini joriy etish;
- statistik ma‘lumotlardan foydalanuvchilar uchun yagona veb-interfeys joriy etish.

Hozirgi kunda Portal va umuman SIAT axborot tizimida 19 ta yo‘nalishda jami 1 700 dan ortiq rasmiy statistik ko‘rsatkichlar to‘plamlari, 10 yillik dinamik qatorlarda, shuningdek, so‘nggi 30 yillik makroko‘rsatkichlar 5 yillik davriylikda foydalanuvchilarga qulay va bepul shaklda yuklab olish uchun 3 xil (Excel, PDF va JPG) formatda joylashtirildi.

Portalda ma'lumotlarni interaktiv grafik, gistogramma va diagrammalar ko'rinishida solishtirish, shuningdek, reyting shakllantirish va ko'rsatkichlar o'rtasidagi munosabatlarni belgilash modullari joriy etilgan. SDMX standarti asosida har bir statistik ko'rsatkich bo'yicha metama'lumotlarning tizimga joylashtirilganligi foydalanuvchilarga ko'rsatkich birinchi bor e'lon qilingan, yangilangan sana, uning birlamchi manbasi, hisoblagan organ va uslubiyoti, mas'ul bo'linma va xodim to'g' risida hamda shu kabi boshqa zarur ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g' risida"gi 373-son qaroriga asosan iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va hududlarda raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat rivojlanish holatini baholashning yagona reyting baholash tizimini joriy etish orqali kelgusida raqamli rivojlanishning tarmoq va hududiy dasturlarini ishlab chiqish uchun baholash jarayonlarini idoralararo muvofiqlashtirishning samarali tizimini joriy etildi [17].

O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishni baholash, soha ko'rsatkichlari hisobini yuritishni samarali tashkil etish bo'yicha "yo'l xaritasi"ga asosan, statistika agentligi raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati to'g' risidagi statistik ko'rsatkichlarni to'plash va shakllantirish va baholashni samarali tashkil etishni amalga oshirib kelmoqda.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytganda, maqolada statistik ma'lumotlarning o'ziga xos jihatlari, miqdoriy statistik ko'rsatkichlar, mamlakatimizda milliy statistika sohasini va raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendentsiyalari, hamda statistika tizimida "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasiga asosan amalga oshirilgan va amaliyotga joriy etilgan loyixalar haqida so'z yuririldi. Shuningdek, AKTlarni davlat boshqaruvi organlari faoliyatiga keng joriy etishning uziga hos jihatlari haqida horijiy ba mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari tahlil qilindi.

O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishni baholash, soha ko'rsatkichlari hisobini yuritishni samarali tashkil etish, statistika agentligi raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati to'g' risidagi statistik ko'rsatkichlarni to'plash va shakllantirish va baholashni samarali tashkil etishni amalga oshirib kelmoqda.

Bugungi kunda Statistika agentligi tomonidan yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan loyihalar respondentlarga va rasmiy statistika ma'lumotlaridan foydalanayotgan boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga qator qulayliklar yaratib

kelmoqda. Rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari mustaqillik, tushunarlik va shaffoflik, aniqlik va ishonchlik, beg'arazlik va xolislik, statistik maxfiylik, dolzarblik hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, quyidagi takliflarni berish mumkin:

- davlat boshqaruvi organlarida faoliyat olib borayotgan hodimlarni raqamli texnologilardan va zamonaviy AKTlardan foydalanish bo'yicha malakasini oshirib borish;

- davlat boshqaruvi organlari faoliyatida foydalanib kelinayotgan AKTlarni va raqamli texnologilar asosida joriy etilgan axborot tizimlarini yanada takomillashtirish;

- davlat organlari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga ko'rsatilayotgan interaktiv davlat xizmatlardan foydalanish bo'yicha ommaviy axborot vositalarida yanada ko'proq ma'lumot berib borish.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Васильева Э.К., Лялин В.С. Статистика. URL://institutiones.com – 2015. Учебник. М.: Юнити, – 399 с.

2. Полякова В.В. Основы теории статистики. – 2015. Учебн. пособие.– Екатеринбург: Изд-во Урал.ун-та, . – 148 с.

3. A.Umirov, Rasmiy statistika huquqiy asoslari belgilanmoqda – 2021. <http://www.xs.uz>

4. O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistikas to'g'risida"gi Qonuni. 11.08.2021. <http://www.lex.uz>

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy majlisga Murojaatnomasi. <http://www.xs.uz>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti <http://www.stat.uz>

7. Гулаков Ю.Г. Эффективность использования информационно-коммуникационных технологий в сфере государственного управления // Молодой ученый. – 2022. – № 12 (407). <http://www.moluch.ru>

8. Хайбуллина С.А. Правовое регулирование предоставления государственных услуг на основе информационно-коммуникационных технологий // Молодой ученый. – 2022. – № 3 (398). <https://www.moluch.ru>

9. Бегалов Б.А. и др. Использование технологий анализа больших объёмов данных (BIG DATA) для повышения эффективности национальной статистической системы // Материалы Респуб. научно-практ. конф. "Роль ИКТ в статистических исследованиях". – Т.: Ин-т повышения квалификации и статист. исслед., – 2020. – С. 21–27.

10. Жуковская И.Е. Совершенствование методологии применения информационно-коммуникационных технологий в статистической деятельности в условиях формирования цифровой экономики: монография. – Т.: Фан ва технология, – 2020. – 164 с.

11. Бегалов Б.А., Жуковская И.Е. Статистическая оценка реализации стратегий социально-экономического развития Республики Узбекистан в условиях цифровой трансформации Статистика и экономика Т. 19. № 3. – 2022. – С. 64-76

12. Gulyamov S.S., Shermuhammedov A.T. Development of digital economy in the republic of Uzbekistan. VII Uzbek-Indonesian Joint international scientific and practical conference *“Innovative development of entrepreneurship” with the framework of scientific and research project* Global economic challenges and national economy development” Tashkent-Jakarta, – 2018, September. – P 180-183.

13. Ходиев Б.Ю. Узбекистан: построение *“Цифровой экономики”* // Российский внешнеэкономический вестник, – 2017. № 12. – С. 3-12.

14. Шодиев Т.Ш. Мультипликативный эффект цифровой экономики. // Электронный ресурс. <http://www.moluch.ru>

15. Дадабаева Р.А. Современные аспекты формирования и развития базовых платформ знание-ориентированной цифровой экономики // Сборник трудов Всероссийской научно-практической конференции, проводимой в рамках VII Стародубцевских чтений, посвященных В. А. Стародубцеву (25–26 декабря 2018 г., г. Тула). – Киров: Изд-во МЦИТО, – 2019. – С. 56-59.

16. Кенжабаев А.Т., Икрамов М.М. Перспективы развития ИКТ и электронное правительство в экономике Узбекистана // Экономика, статистика и информатика, – 2015. № 2. – С.221-223.

17. Davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda hududlarni raqamli transformatsiya holatini reyting baholash tartibi to‘g‘risida nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi 373-son qaroriga ilova. <https://www.lex.uz>